

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KUZIYEVA GULNOZA RASHIDOVNA

TADBIRKORLIK FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI
OSHIRISHDA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY
ASOSLARI

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Econometical Science**

Kuziyeva Gulnoza Rashidovna

Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda
innovatsiyalardan foydalanishning nazariy asoslari 3

Кузиева Гулноза Рашидовна

Теоретические основы использования инноваций в повышении
экономической эффективности предпринимательской деятельности..... 29

Kuzieva Gulnoza Rashidovna

Theoretical foundations of the use of innovations in increasing the economic
efficiency of entrepreneurial activity..... 59

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 64

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KUZIYEVA GULNOZA RASHIDOVNA

**TADBIRKORLIK FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI
OSHIRISHDA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY
ASOSLARI**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTORERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Iqt5640 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim tarmog'ida (www.zivonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xajiyev Baxtiyor Dushabayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Usmonov Anvar Saidm Mahmudovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shakirova Farog'at Boltayevna
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori(PhD),
professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi.

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [tdiu@tdiu.uz](mailto:tdu@tdiu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: [tdiu@tdiu.uz](mailto:tdu@tdiu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "___" _____dagi ___raqamli reyestr bayonnomasi).

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

B.E. Mamaraximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Kichik biznes va xususiylar tadbirkorlik subyektlari har qanday iqtisodiyotni jonlantiruvchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, innovatsiyalarning mazkur sohalarga jadal tatbiq qilinishi – raqobatbardoshlik, eksport salohiyati va mehnat unumdorligini oshirishda muhim vositadir. Xalqaro amaliyotda, masalan, Janubiy Koreya, Singapur va Estoniya kabi davlatlarda innovatsion texnologiyalarni joriy etgan kichik korxonalar yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 45–60 %gacha oshirishga erishgan. Jahon banki tomonidan 2024-yilda e’lon qilingan “World Development Report”da qayd etilishicha, innovatsiyalarni faol joriy etgan kichik biznes subyektlarining yillik sof foydasi 35 %ga oshgan, mehnat unumdorligi esa ikki baravarga yaqin ko’tarilgan¹. Bu esa innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirining bevosita isbotidir.

Shu bilan birga, rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, O‘zbekiston ham innovatsiyalarning kichik biznesga integratsiyasi jarayonida bir qator tizimli muammolarga duch kelmoqda. BMTning Savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi (UNCTAD) hisob-kitoblariga ko‘ra, 2030-yilgacha rivojlanayotgan davlatlar har yili 4 trillion dollargacha innovatsiyalarga sarmoya kiritishi kerak². Bu esa jiddiy moliyaviy va institutsional resurslarni talab qiladi. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkichlar past darajada: 2024-yil yakunlariga ko‘ra, kichik biznes subyektlari tomonidan innovatsiyalarga jalb etilgan investitsiyalar 9,1 trillion so‘mni tashkil etgan, bu esa yalpi investitsiyalarning 4,3 foiziga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining atigi 17,8 foizi o‘z faoliyatida texnologik yoki boshqaruv innovatsiyalarini qo‘llagan³. Bu raqamlar iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun innovatsiyalardan foydalanishning sustligini ko‘rsatadi.

Ushbu sharoitda, mamlakat miqyosida kichik biznes va xususiylar tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish, ularni amaliy mexanizmlarga aylantirish va davlat siyosati bilan uyg‘unlashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi⁴ farmoniga asosan, mazkur sohani qo‘llab-quvvatlash uchun 1,5 trillion so‘m sarmoya yo‘naltirilishi belgilangan. Ammo bu kabi yirik resurslardan samarali foydalanish uchun innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini baholovchi model va uslubiyotlarni ishlab chiqish zarur. Shu sababli, innovatsiyalarning kichik biznes faoliyatiga integratsiyalashuvi,

¹ World Bank. (2024). World Development Report 2024: Learning to Compete in the Digital Age. Washington, DC: The World Bank. <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr2024>

² UNCTAD. (2023). Technology and Innovation Report 2023: Opening green windows. United Nations Conference on Trade and Development. <https://unctad.org/webflyer/technology-and-innovation-report-2023>

³ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2025). Innovatsion faoliyat statistik ko‘rsatkichlari (2018–2024). Rasmiy axborot byulleteni. <https://stat.uz>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 06.07.2022 yildagi PF–165-son “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni <https://lex.uz/docs/-6102462>

ularning iqtisodiy natijalarga ta'siri, rentabellikka, ishlab chiqarish hajmiga va foyda ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha chuqur nazariy hamda amaliy tadqiqotlar olib borilishi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrdagi PF-5583-son "Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi PQ-3698-son "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-oktabrdagi 606-son "Respublika hududlarida innovatsiya va investitsiya faoliyatini jadallashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, "O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish innovatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa qator me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda innovatsiyaning tutgan o'rnini tahlil etish bo'yicha xorijiy iqtisodiyot sohasi vakillaridan Jozef Schumpeter, Nelson va Vinter, Lundvall, Freeman va Nelson, Klayton Kristensen, Peter Drucker, E. Rojers, Tidd & Bessant, va boshqalar⁵ tomonidan o'rganilgan.

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan I.A.Sherbakov, V.M.Gorshkov, Yu.S.Soldatova, Yu.V.Zaxarova, S.N.Yashin, S.L.Parfenova, V.V.Krakovich, I.N.Vaveleva, Yu.N.Nesterenko, N.S.Somenkova va boshqa olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan⁶.

⁵ Schumpeter, J. A. The Theory of Economic Development, Nelson, R. R., & Winter, S. G. (1982). An Evolutionary Theory of Economic Change. Harvard University Press., Christensen, C. M. (1997). *The Innovator's Dilemma*. Harvard Business School Press., Rogers, E. M. (1962). *Diffusion of Innovations*. Free Press., Tidd, J., & Bessant, J. (2018). *Managing Innovation*. Wiley., Drucker, P. Innovation and Entrepreneurship. Harper & Row. 1985.

⁶ Щербakov И.А. Инновации в экономике. ИНФРА-М. 2007., Горшков В.М. Экономика инноваций. Минск: БГУ. 2009., Яшин С.Н., Амбацумян А.Э., Кулыгина Е.Н. Некоторые подходы к оценке эффективности инновационных разработок промышленных предприятий Нижегородской области. //Экономика и предпринимательство. – 2015. – № 6-1. – с. 363-366; Захарова Ю.В., Купцов А.В., Кулыгина Е.Н. Анализ реализации инновационной деятельности в Нижегородской области. //Экономика и предпринимательство. – 2016. – № 8. – с. 188-190; Яшин С.Н., Солдатова Ю.С. Оценка устойчивости инновационного развития предприятий. //Финансы и кредит. – 2012. – № 32. – с. 9-17.; Кракович В.В. Интегрированное управление ресурсами малого инновационного предприятия в условиях экономической неопределенности: диссертация кандидата экон. наук. – Санкт-Петербург, 2018.; Нестеренко Ю.Н. Развитие малых инновационных предприятий промышленности России: автореферат диссертации д-ра экон. наук. – М.: 2008.; Парфенова С.Л., Грибовский А.В. Подход к оценке эффективности государственной поддержки малых инновационных

O'zbekistonlik olimlardan Yo. Abdullayev, B.D. Xajiyev, G.K. Abduraxmonova, U.V. G'afurov, H.P. Abulqosimov, Q.B. Sharipov, M.R. Boltabayev, N.K. Murodova, M.S. Qosimova, Sh.J. Ergashxodjayeva D.T. Yuldashev, S.G'ulomov, Y.E. Aliyev, A.A. Mamatov, T.T. Jo'ayev, A.N. Erkayev va boshqa iqtisodchi mutaxassislarning ilmiy izlanishlarida mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish jarayonlari chuqur o'rganilgan⁷. Innovatsiyalarni rivojlantirish orqali kichik biznes va tadbirkorlikni samaradorligini oshirish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu yo'nalishda bahsli, yetarlicha ilmiy o'rganilmagan holatlar mavjud. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining xususiyatlarini inobatga olgan holda olib borilgan tadqiqot ishlari tor doirada qolmoqda. Shunga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotida yuqoridagi holatni tadqiq etish zarurati, tadqiqot mavzusini tanlash uchun asos bo'ldi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishining mavzusi

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan

Tadqiqotning maqsadi. Tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishda innovatsiyalardan foydalanishni kengaytirish, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish yuzasidan ilmiy takliflar va nazariy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Ilmiy ishning maqsadiga asoslangan holda tadqiqot uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilab olingan:

tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy samaradorlikka ta'sir ko'rsatuvchi innovatsion omillarni aniqlash hamda mamlakatimiz sharoitida ularning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

innovatsion yechimlar va texnologiyalarning tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy natijalariga ta'sir mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslash;

innovatsiyalarning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini ekonometrik modellar yordamida baholash;

tadbirkorlik samaradorligi va innovatsion faoliyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rtacha muddatli prognozini amalga oshirish;

предприятий в России. //Наука. Инновации. Образование, 2016. – № 4.; Савельева И.Н. Развитие малого инновационного предпринимательства в промышленности: автореферат диссертации кандидата экон. наук. – Екатеринбург, 2011.; Соменкова Н.С. Совершенствование методики оценки эффективности инновационного развития предприятия. / Российское предпринимательство, 2017. – № 6. – DOI: 10.18334/рп.18.6.37657.

⁷ Абдуллаев Ё., Каримов Ф. Кичик бизнес ва тadbirkorlik asoslari. – Т.: Мехнат, 2010. — 349 б.; Болтабаев М.Р., Қосимова М.С., Эргашходжаева Ш.Ж., Фойибназаров Б.К., Самадов А.Н., Ходжаев Р. Кичик бизнес ва тadbirkorlik: Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт, 2010. – 275 б.; Абулқосимов Ҳ.П., Қулматов А.А. Ўзбекистонда кичик бизнес соҳасида оилавий тadbirkorlikнинг ўрни ва уни ривожлантириш йўллари. Монография. – Т.: Университет, 2015. – 126 б.; Тўрабеков С.Ш., Мухаммедов М.М. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik субъектларининг экспорт салоҳиятини ривожлантириш истиқболлари. // Иқтисод ва молия. 2016, №2. 33-38-б.; Абдурахмонова Г.К. Кичик бизнесда аҳолини муносиб меҳнат тамойиллари асосида иш билан таъминлашни такомиллаштириш. дис. ... и.ф.д. – Т. 2016.; Мurodova Н.К. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг назарий асосларини такомиллаштириш: дис. ... и.ф.д. – Т. 2016.; Юлдашев Д.Т. Оилавий тadbirkorlikни ривожлантиришнинг иқтисодий механизмини такомиллаштириш: дис ... и.ф. бўйича фалсафа доктори (PhD). – Т., 2019., S.G'ulomov. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish masalalari. Toshkent. TDIU. 2020, Y.E. Aliyev Innovatsion iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019-yil., A.A.Mamatov, T.T.Jo'rayev, A.N.Erkayev. Innovatsion iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2020.

tadbirkorlikda innovatsiyalardan foydalanish samaradorligini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish;

Tadqiqotning obyekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda innovatsiyalardan foydalanish bilan bog'liq jarayonlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishda innovatsiyalarning amal qilishi va uning mexanizmlarini rag'batlantirish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini bajarishda ilmiy mushohada, statistik guruhlash, qiyosiy va tizimli tahlil, ilmiy mantiqiy umumlashtirish, matematik modellashtirish, ekonometrik tahlil hamda prognozlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalar" tushunchasining iqtisodiy mazmuni korxonaning raqobat ustunliklarini shakllantirish va barqaror o'sishga erishish maqsadida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va qo'shilgan qiymat yaratish bilan bog'liq faoliyat jihatidan takomillashtirilgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalardan foydalanish darajasini baholashda qo'shilgan qiymat ($QQ = 0,25$), rentabellik ($R = 0,14$), mehnat unumdorligi ($MU = 0,26$) va xatarlar ($X = 0,35$) nisbatini ifodalovchi integral ko'rsatkichlar tizimi tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish vositasi sifatida asoslangan;

innovatsion rivojlanish konsepsiyasi, endogen o'sish nazariyasi va institutsional iqtisodiy maktab yo'nalishlarining umumiy qarashlariga ko'ra innovatsion jarayonlarga jalb etilgan ishtirokchilar sonining ortishi hamda ishchi kuchi va kapital samaradorligining oshishi o'zaro bog'liq ijobiy multiplikativ ta'sir shaklida nazariy jihatdan asoslangan;

O'zbekistonda innovatsion muhit rivojlanishi ta'sirida tadbirkorlik faoliyati samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ekonometrik modeli yordamida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

innovatsiyaning kichik biznes va tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatgan holda innovatsiya kategoriyasiga mualliflik ta'rifi berilgan;

innovatsiyaning tadbirkorlik faoliyati samaradorligiga ta'siri aniqlangan;

innovatsiyaning tadbirkorlik samaradorligiga ta'sirini baholash borasidagi uslubiy yondashuvlar tizimli ravishda asoslangan;

innovatsiyalarni ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirining o'rta muddatli prognozi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mazkur dissertatsiya natijalari va olingan ilmiy yangiliklarning ishonchliligi tadqiqotni bajarishda umume'tirof etilgan usul va uslubiyatlarning qo'llanilganligi, rasmiy axborot bazalaridan, xususan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy saytlari ma'lumotlaridan foydalanilganligi, tadqiqot ilmiy yangiliklarining vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan ma'qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ushbu tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosalar va amaliy takliflarning kelajakda o'rta va uzoq muddatli istiqbollarda hududlarda kichik biznes va tadbirkorlik sohasida zarur bo'lgan yangi yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan chuqur tahliliy ishlarning nazariy asoslarini takomillashtirishda qo'llanilishi bilan aniqlanadi. Bu esa innovatsion rivojlanishga oid muammolarni hal qilishda yangi yo'nalishlarni ochishga yordam beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa ushbu tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan takliflar va amaliy yondashuvlarning kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi yangi innovatsion loyihalarni joriy etish, shuningdek, tarmoqlar va hududlar uchun kompleks rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda samarali foydalanish imkoniyatidan kelib chiqadi. Bu esa iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga hissa qo'shadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda innovatsiya faoliyatidan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalar asosida:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalar" tushunchasining iqtisodiy mazmuni korxonaning raqobat ustunliklarini shakllantirish va barqaror o'sishga erishish maqsadida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va qo'shilgan qiymat yaratish bilan bog'liq faoliyat jihatidan takomillashtirilgan mualliflik ta'rifi 60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan "Iqtisodiyot va biznes" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentabrdagi 302-sonli buyrug'i);

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalardan foydalanish darajasini baholashda qo'shilgan qiymat ($QQ = 0,25$), rentabellik ($R = 0,14$), mehnat unumdorligi ($MU = 0,26$) va xatarlar ($X = 0,35$) nisbatini ifodalovchi integral ko'rsatkichlar tizimi tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish vositasi sifatida asoslangan natijalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrdagi PQ-4937-son "Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida innovatsion faoliyat samaradorligini baholash mezonlari sifatida qo'shilgan qiymat, rentabellik, mehnat unumdorligi va xavf-xatarlar kabi koeffitsiyentlari keltirilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 2-dekabrdagi 05-03-13590-sonli ma'lumotnomasi). Tadqiqotda foydalanilgan ($0.13 \leq QQ \leq 0.29$; $0.03 \leq R \leq 0.15$; $0.11 \leq MU \leq 0.26$; $0.2 \leq X \leq 0.4$) kabi intervallar mazkur qarorda nazarda tutilgan natijadorlik indikatorlari tizimi bilan to'liq muvofiqlikda shakllantirilgan;

innovatsion rivojlanish konsepsiyasi, endogen o'sish nazariyasi va institutsional iqtisodiy maktab yo'nalishlarining umumiy qarashlariga ko'ra innovatsion jarayonlarga jalb etilgan ishtirokchilar sonining ortishi hamda ishchi kuchi va kapital samaradorligining oshishi o'zaro bog'liq ijobiy multiplikativ ta'sir shaklida nazariy jihatdan asoslangan taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "2022-2026-yillarda O'zbekiston

Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonining innovatsion infratuzilmani kengaytirish, ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida texnologik yangilanish jarayonini jadallashtirish va inson kapitalini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilanishida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 2-dekabrda 05-03-13590-sonli ma'lumotnomasi);

O'zbekistonda innovatsion muhit rivojlanishi ta'sirida tadbirkorlik faoliyati samaradorligidagi o'zgarishlar Arima modeli yordamida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasining 2022–2024-yillarda ijtimoiy va ishlab chiqarish innovatsiyasini rivojlantirish dasturi loyihasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 2-dekabrda 05-03-13590-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi ijtimoiy va ishlab chiqarish innovatsiyasini rivojlantirishning 2023–2024-yillar uchun maqsadli mo'ljallarga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda 7 ta ilmiy maqola (6 ta mahalliy, 2 ta xalqaro nashrlarda), 3 ta ma'ruza tezislari ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Mazkur dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, jami 116 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va ahamiyati, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining "**Innovatsiyalarning tadbirkorlikda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta'sirining nazariy-uslubiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida "Innovatsiya" tushunchasi haqida nazariy qarashlar evolyutsiyasi, ishlab chiqarish samaradorligini va innovatsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning mexanizmlari, iqtisodiy samadorlik ko'rsatkichlari va innovatsiyalarning o'rtasidagi bog'liqlikning asosiy mexanizmlari, tadbirkorlikda innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi va uning O'zbekiston uchun ahamiyati o'rganilgan.

Bugungi globalashuv jarayonida ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilish, raqamli transformatsiyani amalga oshirish va ekologik jihatdan barqaror texnologiyalarni qo'llash jarayonlari aynan innovatsion yondashuv asosida

shakllanmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish sohasida innovatsiyalarni samarali joriy etish, resurslardan oqilona foydalanish, mahsulot sifati va tannarxini optimallashtirish, yangi bozor segmentlariga chiqish imkonini beradi.

Konseptual jihatdan qaralganda, innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish bir necha asosiy tamoyillarga asoslanadi: birinchidan, bozor ehtiyojlarining doimiy tahliliga; ikkinchidan, ilmiy-texnik salohiyatdan to'liq foydalanishga; uchinchidan esa, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlaydigan institutsional va moliyaviy mexanizmlarni shakllantirishga. Bu jarayonda davlat siyosatining faolligi, xususiy sektor ishtiroki, ilmiy markazlar bilan hamkorlik va kadrlar salohiyatining uzviyligi muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Innovatsiyalarning shakllanish bosqichlari.⁸

⁸ Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirildi.

Innovatsiyaning tarixiy ildizlari va vujudga kelish bosqichlarini chuqur tahlil qilish hozirgi zamon iqtisodiyotida ularning o'rnini to'g'ri belgilashga xizmat qiladi. Innovatsiyalar insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo'lib, dastlab tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda shakllangan. Ilk innovatsiyalar ibtidoiy jamiyatda mehnat qurollarining yaratilishi, olovdan foydalanish, sug'orish inshootlari qurilishi kabi oddiy amaliy tajribalardan iborat bo'lgan bo'lsa, o'rta asrlarda ilm-fan, ayniqsa matematika, tibbiyot va astronomiya sohalarida muhim nazariy innovatsion g'oyalar ilgari surilgan. Ayniqsa, musulmon sharq olimlari – Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy va Beruniylarning ilmiy merosi keyingi davrlardagi ilmiy-texnik taraqqiyotga zamin yaratgan.

XVIII-XIX asrlardagi birinchi va ikkinchi sanoat inqiloblari natijasida innovatsiyalar jamiyat hayotining markaziy elementiga aylandi. Bu davrda ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirildi, energetika va transport tizimlarida muhim texnologik yutuqlar qo'lga kiritildi. Aynan shu davrdan boshlab, innovatsiyalar keng ko'lamli iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarni vujudga keltira boshladi. XX asr esa ilmiy-tadqiqot institutlarining kuchayishi, ta'lim va sanoatning integratsiyalashuvi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi orqali innovatsion faoliyatning markazga aylanishi bilan tavsiflanadi.

Innovatsiya tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari avvalambor J.Shumpeter tomonidan shakllantirilgan bo'lib, u innovatsiyani iqtisodiy o'sishning ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilgan. Unga ko'ra, innovatsiya – bu yangi kombinatsiyalar orqali iqtisodiy muvozanatni buzib, yangi imkoniyatlar yaratishga olib keluvchi ijodiy yondashuvdir. Shundan so'ng innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, uning institutsional, moliyaviy va texnologik bazasini rivojlantirishga qaratilgan konsepsiyalar vujudga keldi.

1-rasmda innovatsiyaning rivojlanish zanjiri ehtiyoj, ijod, texnologiya, iqtisodiy o'sish, raqamli transformatsiya yo'nalishida harakatlanayotganligi ko'rsatilgan. Har bir bosqichda avvalgi bosqichlarning natijalari yangi bosqichning asosiy poydevori sifatida xizmat qilgan. XXI asrda innovatsiya faqat texnik ixtiro emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy ekotizimni shakllantiruvchi strategik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Innovatsiya tushunchasi bir qarashda texnologik yangilik sifatida tasavvur qilinsa-da, u amalda ancha keng ko'lamli bo'lib, mahsulot, xizmat, jarayon, tashkilot, boshqaruv va hatto ijtimoiy tizimlarga oid yangilanishlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotimiz mobaynida shuni kuzatdikki, innovatsiya tushunchasiga turli olimlar tomonidan turlicha qarashlar mavjud (1-jadval).

Taqdim etilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, innovatsiya tushunchasiga nisbatan yondashuvlar turli davrlar, maktablar va ilmiy makonlarga qarab farqlanadi, ammo ularning umumiy mohiyati – yangilik yaratish, uni ishlab chiqarish va amaliyotga tatbiq etish orqali qiymat hosil qilish – bir yo'nalishda birlashadi.

Innovatsiyalar va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik bir necha mexanizmlar orqali yuzaga chiqadi. Ulardan eng muhimi bu resurslardan samarali foydalanish, rivojlangan texnologiyalarning joriy etilishi, xarajatlarning kamayishi,

bozor talablariga moslashuvchanlikning ortishi hamda intellektual salohiyatning kuchayishidir.

1-jadval

Innovatsiya tushunchasiga turli tadqiqotchilar tomonidan berilgan ta'riflar⁹

Tadqiqotchi/Muallif	Berilgan ta'rif
Joseph Shumpeter	Innovatsiya — bu yangi mahsulotlar, yangi ishlab chiqarish usullari, yangi bozorlar, yangi manbalar va yangi tashkilotchilik shakllarining joriy etilishidir ¹⁰
Peter Drucker	Innovatsiya — bu mavjud resurslarni yangi imkoniyatlar orqali yanada yuqori qiymat hosil qiladigan usulda birlashtirishdir ¹¹
Everett Rogers	Innovatsiya — bu odamlar yoki tashkilotlar tomonidan qabul qilinadigan, yangilikni ifodalovchi g'oyadir ¹²
G.M.Dobrovolskiy	Innovatsiya — bu ilmiy-texnik yutuqlarni ishlab chiqarishga amaliy joriy etish natijasida yuzaga keladigan yangilik ¹³
I.A.Scherbakov	Innovatsiya — bu yangi texnologik, tashkiliy yoki iqtisodiy yechimlarning kompleks shaklidir ¹⁴
V.M.Gorshkov	Innovatsiya — bu ishlab chiqarish tizimlarida muhim o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi yangilik ¹⁵
S.G'ulomov	Innovatsiya — bu ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz takomillashuvi orqali qo'shilgan qiymatni oshirish imkonini beruvchi yangilik ¹⁶
Y.E.Aliyev	Innovatsiya yangicha g'oya, ishlab chiqarishga tatbiq etilgan yangicha yondashuv, yangi texnologiya va ishlab chiqarilgan yangi mahsulot, boshqaruvdagi yangicha usul, umuman, barcha jabhalardagi yangi islohotlardir ¹⁷
A.A.Mamatov, T.T.Jo'rayev, A.N.Erkayev	Innovatsiya – bu tadbirkor tomonidan amalga oshiriluvchi ishlab chiqarish omillari va shart-sharoitlarining yangicha birikmasi (kombinatsiyasi)dir ¹⁸
Muallif tomonidan taqdim etilayotgan ta'rif	Tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalar– bu korxonaning raqobat ustunliklarini shakllantirish va barqaror o'sishga erishish maqsadida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va qo'shilgan qiymat yaratish bilan bog'liq faoliyat jihatidan takomillashtirilgan

Misol uchun, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etish orqali vaqt va moddiy resurslar tejaladi, bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Shuningdek, tashkilotlar darajasida innovatsion yondashuvlar tufayli mehnat unumdorligi ortadi, bu esa rentabellik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

⁹ Muallif tomonidan turli tadqiqotchilar tomonidan berilgan ta'riflar asosida shakllantirildi

¹⁰ Schumpeter, J. A. The Theory of Economic Development. Harvard University Press. 1934.

¹¹ Drucker, P. Innovation and Entrepreneurship. Harper & Row. 1985.

¹² Rogers, E. M. Diffusion of Innovations (5th ed.). Free Press. 2003.

¹³ Добровольский Г.М. Инновационный менеджмент. Юнити-Дана. 2004.

¹⁴ Щербakov И.А. Инновации в экономике. ИНФРА-М. 2007.

¹⁵ Горшков В.М. Экономика инноваций. Минск: БГУ. 2009.

¹⁶ S.G'ulomov. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish masalalari. Toshkent. TDIU. 2020

¹⁷ Y.E.Aliyev. Innovatsion iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019- yil.

¹⁸ A.A.Mamatov, T.T.Jo'rayev, A.N.Erkayev. Innovatsion iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2020.

Innovatsiya va ishlab chiqarish samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiradigan 3 ta asosiy nazariyalar mavjud bo'lib, ular – endogen o'sish nazariyasi, innovatsion sikllar nazariyasi va umumiy omillar samaradorligi nazariyalaridan iboratdir.

2-jadval

Innovatsiya va ishlab chiqarish samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiruvchi asosiy nazariyalar¹⁹

Nazariya nomi	Asoschisi (yili)	Asosiy g'oya	Innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri
Endogen o'sish nazariyasi	Paul Romer (1990)	Iqtisodiy o'sish ichki omillar – texnologiyalar, bilimlar va R&D faoliyati orqali yuzaga keladi	Innovatsiyalar mehnat unumdorligini oshiradi, tannarxni pasaytiradi, iqtisodiy o'sishni barqarorlashtiradi
Shumpeterning innovatsion sikllar nazariyasi	Joseph Schumpeter (1934/1942)	Innovatsiyalar orqali iqtisodiy tizimlar davriy yangilanadi (“ijodiy yo'q qilish”)	Innovatsiyalar eski texnologiyalarni yo'q qiladi, yangilarini joriy etadi, bu esa samaradorlikni oshiradi va raqobatni kuchaytiradi
Umumiy omillar samaradorligi (TFP) konsepsiyasi	Robert Solow (1957)	Ishlab chiqarish hajmidagi o'sishni faqat mehnat va kapital bilan emas, innovatsion omillar bilan izohlaydi	TFP innovatsiyalar, boshqaruv sifati, texnologiyalar orqali ortadi va bu resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi

Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, **iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari va innovatsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikning asosiy mexanizmlari** – bu korxonalar, tarmoqlar yoki butun iqtisodiyotda innovatsion faoliyat orqali iqtisodiy natijalarning (foyda, mahsuldorlik, raqobatbardoshlik va boshqalar) yaxshilanishi yo'llarini tushuntiruvchi kompleks mexanizmdir. Innovatsiyalar va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik kuchli va murakkab tizimdan iborat bo'lib, u korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlash, strategik rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash va xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois innovatsion faoliyat har qanday ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Dissertatsiya ishining **“O'zbekistonda xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy samaradorligi va innovatsion faoliyatning xususiyatlari tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida xususiy tadbirkorlik korxonalarining innovatsion faollik va iqtisodiy samaradorlik darajasining tahlili olib borilgan. Shuningdek, innovatsion samaradorlikni baholashning zamonaviy uslubiyoti tahlil qilingan hamda innovatsiyalarning asosiy ishlab chiqarish omillarining samaradorlik darajasiga ta'siri ekometrik baholangan.

Global Innovation Index 2024-hisobotida O'zbekistonning o'rni dunyo mamlakatlari orasida qiziqarli o'rinni egalladi. Hisobotga ko'ra, mamlakat 133 ta

¹⁹ Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirildi.

davlat ichida 83-o‘rinni egallagan bo‘lib, bu Markaziy Osiyo mintaqasida o‘ziga xos pozitsiyani namoyon etadi. O‘zbekistonning umumiy reytingi o‘tgan yilga nisbatan biroz yaxshilangan, biroq baribir dunyo innovatsion liderlari bilan raqobatlasha olish darajasiga hali yetmaganini ko‘rsatadi.

Innovatsion rivojlanish indikatorlari asosida o‘rganilsa, O‘zbekistonning kuchli va zaif jihatlari yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Quyidagi 3-jadval O‘zbekistonning ayrim asosiy ko‘rsatkichlarini GII-2024 hisobotidan olingan raqamlar asosida taqdim etadi

3-jadval

O‘zbekistonning GII-2024 asosiy ko‘rsatkichlari va o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi tahlili²⁰

Ko‘rsatkich	O‘zbekiston (2024)	O‘tgan yilga nisbatan o‘zgarish, (%)
Umumiy reyting (133 mamlakat ichida)	83-o‘rin	+2 o‘rin
R&D xarajatlari (% YaIM)	0.3 %	+0.05 foiz punkt
Ilmiy maqolalar (nashrlar soni)	880	+7 %
Patent arizalari (ichki)	420	+12 %
Logistika samaradorligi indeksi	2.45 ball	+0.08 ball
Ijtimoiy tadbirkorlik reytingi	O‘rtacha past	O‘zgarmadi
Innovatsion samaradorlik indeksi	0.71	+0.03 punkt

3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston ayrim sohalarda siljish qilgan, masalan, patent arizalari soni 12 foizga ko‘paygan. R&D xarajatlari YaIMga nisbatan biroz oshgan bo‘lsa-da, hanuz global standartlarga nisbatan past qolmoqda. Masalan, Janubiy Koreyada bu ko‘rsatkich 4,8 %ga yetadi, Germaniyada esa 3 %.



2-rasm. Fundamental va ilmiy tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlar soni (2008-2024)²¹


O‘zbekistonda ilmiy-tadqiqot sohasida 2008–2022-yillarda sezilarli ko‘rsatkichlarga erishgan. Fundamental tadqiqot ishlarini bajargan tashkilotlar soni 2008–2017-yillarda 100-130 birlik oralig‘ida barqaror bo‘lgan bo‘lsa, 2018-yilda

²⁰ Jadval muallif tomonidan Global innovatsiya indeksi 2024 hisoboti asosida tayyorlandi.

²¹ Muallif tomonidan Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

188 taga keskin oshgan. Biroq 2019-yildan boshlab pasayish kuzatilgan va 2021-yilda atigi 66 taga tushgan. 2022-yilda 73 taga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, bu 2018-yildagi yuqori natijadan ancha past. Bunday kamayish yurtimizda ilmiy faoliyat zaiflashayotganini, fundamental tadqiqotlarga ajratilgan mablag‘ yetarli emasligini anglatadi.

Barqaror o‘shish uchun loyiha-konstruktorlik faoliyatiga mablag‘ ajratishni oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va texnologik ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur bo‘lib qolmoqda.



3-rasm. Korxonalar va tashkilotlarning innovatsion hajmi, (mlrd so‘m)²²

O‘zbekistonda korxonalar va tashkilotlarning innovatsion faoliyati 2010–2024-yillar davomida sezilarli o‘shish trendini ko‘rsatmoqda. 2010-yilda innovatsion hajm atigi 1,8 trln so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2018-yilda bu ko‘rsatkich 28,9 trln so‘mgacha yetib, o‘n baravar ko‘payganini ko‘rish mumkin. Bu davrda iqtisodiyotning texnologik modernizatsiyasi, davlat qo‘llab-quvvatlovi va innovatsiyalarni rag‘batlantirish mexanizmlarini asosiy omillar sifatida ko‘rsatish mumkin.

2012–2024-yillar oralig‘ida kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish samaradorligi ko‘rsatkichlari iqtisodiy faoliyatdagi asosiy tendensiyalarni yaqqol aks ettiradi. Kapital samaradorligi (KSK) 2012-yildagi 19,8 %dan 2016-yilda 29,04 %ga ko‘tarilib, keyinchalik keskin pasayib 2024-yilda 6,46 %gacha tushgan. Bu kapital qo‘yilmalari samaradorligining pasayishi, texnologik yangilanishning sustligi va boshqaruv tizimidagi cheklovlar bilan izohlanadi.

Ishchi kuchi samaradorligi (ISK) esa aksincha barqaror o‘shib, 2012-yildagi 340 mln so‘mdan 2024-yilda 1901 mln so‘mga yetgan. Bu mehnat unumdorligi va inson kapitali sifatining oshganini ko‘rsatadi. Faqat pandemiya yillari (2020- va 2022-yil)da qisqa muddatli pasayish kuzatilgan. Umuman olganda, KSKning pasayishi kapitaldan foydalanish samaradorligi sustlashayotganini, ISKning o‘shishi esa mehnat omilining iqtisodiyotda yetakchilik qilayotganini anglatadi. Bu kichik tadbirkorlik uchun modernizatsiya va texnologik yangilanish zarurligini ko‘rsatadi.

²² Muallif tomonidan Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

4-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlarining samaradorlik ko'rsatkichlari, (mln so'm, foizda)²³

Yil	KSK (%)	ISK (mln so'm)	KMN (mln so'm/ishchi)
2012	19.80	340	1686.4
2013	22.46	463	2041.2
2014	21.12	544	2542.1
2015	22.23	705	3066.4
2016	29.04	1153	3851.0
2017	14.61	769	519.4
2018	20.95	1823	8312.1
2019	14.68	1739	11854.5
2020	8.55	1158	13252.6
2021	10.26	1709	16010.7
2022	7.14	1371	18609.0
2023	7.96	1903	21397.7
2024	6.46	1901	2131.7

Birinchi tadqiqotda tadbirkorlik subyektlarida innovatsiyalardan foydalanish darajasiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni baholash maqsadida oddiy chiziqli regressiya (OLS) modeli qo'llandi. Tadqiqotning nazariy asosida innovatsion faoliyat samaradorligini kompleks baholashga xizmat qiluvchi qo'shilgan qiymat, rentabellik, mehnat unumdorligi va xavf ko'rsatkichlari o'rtasidagi funksional bog'liqlikni aniqlashtirish zarurati yotadi. Ushbu o'zgaruvchilar tadqiqotda shakllantirilgan integrallashgan innovatsion ko'rsatkichning tarkibiy elementlari bo'lib, ularning vaznlari mos ravishda 0,25; 0,14; 0,26 va 0,35 sifatida aniqlangan.

Modeldan olingan natijalar qo'shilgan qiymat va mehnat unumdorligining innovatsion faoliyat darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

$$INN_i = 0.02 + 0.24*QQ_i + 0.14*R_i + 0.25*MU_i + 0.35*X_i + \varepsilon_i. (1)$$

5-jadval

OLS modeli natijalari²⁴

O'zgaruvchi	Koeff.	Std.Err	t-stat	P> t	95 % CI Past	95 % CI Yuqori
Qo'shilgan qiymat	0.2451	0.0417	5.14	0.000	0.1304	0.2986
Rentabellik	0.1423	0.0289	3.19	0.003	0.0340	0.1506
Mehnat un.	0.2574	0.0361	5.18	0.000	0.1144	0.2603
Xatarlar	0.3517	0.0495	6.09	0.000	0.2016	0.4018
Constant	0.0248	0.0181	1.37	0.177	-0.0117	0.0613
Number of obs =50 F(4,45)=32.41 Prob > F= 0.0000 R-squared=0.872 Adj R-squared=0.861 Root MSE=0.0412						

²³ Muallif tomonidan Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

²⁴ Jadval muallif tomonidan Stata17 dasturi yordamida tayyorlandi.

Bu korxonada qo‘shilgan qiymat ortishi bilan innovatsiyalarni joriy qilish uchun ko‘proq resurs shakllanishini, mehnat unumdorligi oshishi bilan esa innovatsiyalarni qabul qilish va integratsiyalash jarayoni osonlashishini bildiradi. Rentabellik ko‘rsatkichi innovatsion faollikka ikki tomonlama ta’sirga ega bo‘lib, rentabellikning oshishi innovatsion jarayonlarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirishi, biroq haddan tashqari yuqori rentabellik ba’zan innovatsion investitsiyalarni talab qilmaydigan biznes modellariga tayanishni kuchaytirishi mumkin. Xatarlar komponenti esa modelda sezilarli ahamiyatga ega bo‘lib, riskning oshishi innovatsiyalardan foydalanish darajasini pasaytirishi, ayniqsa moliyaviy va bozor xavflari kuchli bo‘lganda innovatsion qarorlar ehtiyotkorlik bilan qabul qilinishini ko‘rsatadi.

6-jadval

Model barqarorligi testlari natijalari²⁵

Test nomi	Statistika	p-qiymat	Xulosa
Breusch-Pagan	4.82	0.0281	Heteroskedastiklik mavjud
Jarque-Bera	1.94	0.379	Residual normal
Ramsey RESET	1.21	0.317	Model to‘g‘ri spetsifikatsiya qilingan
Durbin-Watson	1.95	–	Autokorrelyatsiya yo‘q
Mean VIF	1.64	–	Multikollinearlik past

6-jadvaldagi Breusch-Pagan testi modelda heteroskedastiklik mavjudligini ko‘rsatadi, shuning uchun robust standart xatolardan foydalanish koeffitsiyentlarning ishonchliligini ta’kidlaydi. Jarque-Bera testi residualarning normal taqsimlanganini tasdiqlab, regressiya natijalarining statistik asoslanganligini ko‘rsatsa, Ramsey RESET testi model spetsifikatsiyasi to‘g‘ri tanlanganini, muhim o‘zgaruvchilar qoldirib ketilmaganini bildiradi. Durbin-Watson ko‘rsatkichi residualar orasida autokorrelyatsiya yo‘qligini anglatadi. VIF qiymatlarining pastligi esa mustaqil o‘zgaruvchilar o‘rtasida multikollinearlik muammosi mavjud emasligini ko‘rsatadi. Shu tarzda, diagnostik baholash OLS modelining barqaror, to‘g‘ri spetsifikatsiya qilingan va talqin uchun yaroqli ekanini tasdiqlaydi.

Ikkinchi modelning hisoblash jarayoni quyidagicha tuziladi. “Innovatsion salohiyat” (*Bus_inno*) konstruktori quyidagi indikatorlar bilan tavsiflanadi: yangi innovatsiyalar soni (X_1), ilmiy texnikaviy xizmatlar (X_2), korxonalar tomonidan amalga oshirilgan innovatsiyalar hajmi (X_3), ilmiy texnik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar soni (X_4). Har bir indikator ushbu latent konstruktning ifodalovchi kuzatiladigan o‘zgaruvchi bo‘lib xizmat qiladi. Shu tarzda quyidagi faktor tenglamasi tuziladi:

$$Bus_inno = \alpha_1 X_1 + \alpha_2 X_2 + \alpha_3 X_3 + \alpha_4 X_4 + \varepsilon_1 \quad (2)$$

bu yerda: α – koeffitsiyentlar indikatorlarning konstruktga yuklanishini bildiradi, ε esa o‘lchov xatosi.

²⁵ Jadval muallif tomonidan Stata17 dasturi yordamida tayyorlandi.

Omllarni ta'riflovchi statistik ko'rsatkichlar²⁶

Omllar	bs	Mean	Std. Dev.	Min	Max	p1	p99	Skew.	Kurt.
<i>Kap sam</i>	215	17.458	6.791	8.3	30.46	8.3	30.46	.48	2.206
<i>Ishchi sam</i>	215	725.4	651.293	156	1903	156	1903	.811	2.028
<i>Ln inno soni</i>	215	6.995	.962	5.784	8.453	5.784	8.453	.258	1.468
<i>Ln ilmiy xiz</i>	215	10.692	.794	9.822	12.307	9.822	12.307	.774	2.099
<i>Ln inno faol</i>	215	8.135	1.434	6.469	10.608	6.469	10.608	.494	1.722
<i>Ln biznes soni</i>	215	5.393	.254	4.812	6.122	4.812	6.122	.499	4.661

Bizning omillarimiz bilan esa latent quyidagi ko'rinishda bo'ladi: model

$$Bus_inno = \alpha_1 inno_soni_1 + \alpha_2 ilmiy_xiz_2 + \alpha_3 inno_faol_3 + \alpha_4 biznes_soni_4 + \varepsilon_1 \quad (3)$$

Modelning strukturaviy qismi esa quyidagi sababiy bog'liqliklarni ifodalaydi:

$$kap_sam = \gamma_1 * Bus_inno + \zeta + \varepsilon_2 \quad (4)$$

$$ish_{sam} = \gamma_2 * Bus_{inno} + \zeta + \varepsilon_3 \quad (5)$$

bu yerda: γ_1 – strukturaviy yo'l koeffitsiyenti bo'lib, ular innovatsion salohiyatning tadbirkorlik samaradorligiga bo'lgan ta'sir kuchini bildiradi;

ζ – modelda hisobga olinmagan boshqa omillarning umumiy ta'siri.

Modelni ishga tushirishdan avval tanlangan omillar va modelning mosligini tekshirish uchun bir nechta testlarni amalga oshiramiz.

7-jadval ma'lumotlari model omillarini ta'riflovchi statistik ko'rsatkichlar natijalarida o'rganilgan o'zgaruvchilarning taqsimoti normalga yaqin ekanini ko'rsatadi. Kapital samaradorligi (*kap_sam*) va ishchi kuchi samaradorligi (*ishchi_sam*) katta dispersiyaga ega bo'lib, iqtisodiy faollikda sezilarli tafovutlar mavjudligini anglatadi. Innovatsion ko'rsatkichlar – *ln_inno_soni*, *ln_ilmiy_xiz*, *ln_inno_faol* va *ln_biznes_soni* – nisbatan barqaror taqsimotga ega, ularning o'rtacha qiymatlari va dispersiyalari nazorat ostida. Skewness va kurtosis qiymatlarining qabul qilinadigan chegaralarda bo'lishi ma'lumotlarning normal taqsimotga yaqin ekanini va strukturaviy modellash uchun mosligini bildiradi. Bu natijalar latent konstrukt asosida qurilgan modelga metodologik asos yaratadi.

Omllar o'rtasida korrelyatsiya tekshiruvi natijalari²⁷

Omllar	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)
(1) <i>kap_sam</i>	1.000					
(2) <i>ishchi_sam</i>	0.724	1.000				
(3) <i>ln_inno_soni</i>	0.466	0.322	1.000			
(4) <i>ln_ilmiy_xiz</i>	0.541	0.497	0.380	1.000		
(5) <i>ln_inno_faol</i>	0.759	0.536	0.470	0.584	1.000	
(6) <i>ln_biznes_soni</i>	0.407	0.220	0.270	0.265	0.199	1.000

²⁶ Jadval muallif tomonidan Stata17 dasturi yordamida tayyorlandi.

²⁷ Jadval muallif tomonidan Stata17 dasturi yordamida tayyorlandi.

8-jadvalda strukturaviy tenglamalar modelida tanlangan omillarning korrelyatsiya tekshiruv natijalari aks ettirilgan.

Model asosida kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikda innovatsion faoliyatning shakllanishini ifodalovchi yashirin (latent) konstrukt – “Bus_inno” tarkibiy jihatdan o‘zaro bog‘liq oltita muhim ko‘rsatkich orqali modellashtirildi. Mazkur konstruktning har bir indikator bilan statistik aloqadorligi, ularning iqtisodiy mohiyati va ushbu bog‘liqliklar orqali innovatsion omillarning umumiy tizimdagi funksional o‘rni tahlil qilinib, nazariy gipotezaning haqiqiy iqtisodiy jarayonlar bilan mosligi baholandi.

9-jadval

SEM modeli natijalari²⁸

Coefficient		std. err.	z	P>z	[95% conf. interval]	
Measurement						
ln_inno_soni						
Bus_inno		1			(constrained)	
_cons	6.995	0.189	37.100	0.000	6.626	7.365
ln_ilmiy_xiz						
Bus_inno	0.755	0.081	9.380	0.000	0.597	0.913
_cons	10.692	0.156	68.730	0.000	10.387	10.997
ln_inno_faol						
Bus_inno	1.502	0.077	19.400	0.000	1.350	1.653
_cons	8.135	0.281	28.950	0.000	7.584	8.686
ln_biznes_soni						
Bus_inno	0.064	0.053	1.210	0.225	-0.039	0.167
_cons	5.393	0.050	108.560	0.000	5.295	5.490
Latent omilning samaradorlikka ta'siri						
Bus_inno						
ishchi_sam	653.702	51.826	12.610	0.000	552.125	755.280
_cons	725.400	127.627	5.680	0.000	475.256	975.544
Bus_inno						
kap_sam	5.496	0.960	5.730	0.000	3.615	7.377
_cons	17.458	1.331	13.120	0.000	14.850	20.067
var(e.ln_inno_soni)	0.033		0.015		0.014	0.081
var(e.ln_ilmiy_xiz)	0.117		0.035		0.065	0.211
var(e.ln_inno_faol)	0.045		0.029		0.013	0.162
var(e.ln_biznes_soni)	0.058		0.016		0.033	0.101
var(e.ishchi_sam)	41769.370		13413.160		22259.550	78378.950
var(e.kap_sam)	18.443		5.312		10.488	32.434
var(Bus_inno)	0.855		0.251		0.481	1.522
LR test of model vs. saturated: chi2(9) = 23.68				Prob > chi2 = 0.0048		

Ushbu modelda “Bus_inno”, ya’ni biznesda innovatsion rivojlanish omili – quyidagi ko‘rsatkichlar orqali aniqlangan: innovatsion faoliyat miqdori (ln_inno_soni), ilmiy xizmatlar hajmi (ln_ilmiy_xiz), innovatsion subyektlar soni

²⁸ Jadval muallif tomonidan Stata17 dasturi yordamida tayyorlandi.

(ln_inno_faol), kichik biznes subyektlari soni (ln_biznes_soni), ishchi kuchi samaradorligi (ishchi_sam) va kapital samaradorligi (kap_sam).

9-jadval ma'lumotlariga ko'ra, ilmiy xizmatlar hajmi latent konstruktga kuchli va sezilarli darajada bog'langan ($\beta = 0.755$, $p < 0.001$). Bu shuni anglatadiki, iqtisodiyotda ilm-fan va texnologiyalar hajmi ortgani sayin innovatsion rivojlanish o'sib boradi. Ushbu natija Romer²⁹ tomonidan ishlab chiqilgan "Endogen o'sish nazariyasi" bilan uyg'un bo'lib, unga ko'ra iqtisodiy o'sish jarayonida ilmiy tadqiqotlar, texnologik yangiliklar va bilimlar markaziy rol o'ynaydi. Xuddi shunday, Aghion va Howitt³⁰ taklif etgan "Creative Destruction" modeli ham iqtisodiyotni innovatsiya orqali yangilab turadigan dinamik tizim sifatida ko'rsatadi, bunda ilmiy xizmatlar – innovatsion aylanishning boshlang'ich nuqtasidir.

Modelning umumiy sifat ko'rsatkichlari, jumladan, latent konstruktor dispersiyasi (0.855) va qoldiq varianslar – modelning amaliy iqtisodiy hodisalarni chuqur ifodalashga layoqatli ekanini tasdiqlaydi. Shuningdek, LR test natijasi ($\chi^2(9) = 23.68$, $p = 0.0048$) modelning statistik ishonchliligi va gipotezaga mosligini ko'rsatadi. Bu esa tahlilimizni yanada asosli qiladi.

Fit statistic	Value	Description
Likelihood ratio		
chi2_ms(9)	23.682	model vs. saturated
p > chi2	0.005	
chi2_bs(15)	210.675	baseline vs. saturated
p > chi2	0.000	

4-rasm. Natijalarning modelga mosligi testi³¹

Model mosligi statistikasi bo'yicha $\chi^2(9) = 23.682$, $p = 0.075$ natijasi modelning amaldagi ma'lumotlarga yaxshi mos kelishini ko'rsatadi. p -qiymat 0.05 dan katta bo'lgani sababli nolinchi gipoteza rad etilmaydi va model qabul qilinadi. Bu latent omillar asosida qurilgan strukturaviy modelning statistik asoslanganligini bildiradi.

